

ONA TILI VA ADABIYOT O`QITISHDA MULTMEDIALI TA`LIM DASTURLARIDAN FOYDALANISH

*Abdullayeva Nasiba Kuralovna,
Jumaniyazova Nargiza Baxtiyorovna
Ichki ishlar vazirligi IIV Xorazm akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili va adabiyot o`qitishda multmedial ta`lim dasturlaridan foydalanish haqida so`z yuritilgan. Multimedia vositalari - bu insonga o`zi uchun tabiiy muxit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqatda bo`lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.

Kalit so`zlar: tilshunoslik, adabiyot, multmedial ta`lim, strategiya, innovatsiya.

Abstract. This article talks about the use of multimedia educational programs in teaching mother tongue and literature. Multimedia tools are a set of technical and software tools that allow a person to communicate with a computer using a natural environment: sound, video, graphics, texts, animation, etc.

Key words: linguistics, literature, multimedia education, strategy, innovation.

Абстракт. В данной статье рассказывается об использовании мультимедийных образовательных программ в обучении родному языку и литературе. Мультимедийные средства представляют собой набор технических и программных средств, позволяющих человеку общаться с компьютером с помощью естественной среды: звука, видео, графики, текстов, анимации и т. д.

Ключевые слова: языкознание, литература, мультимедийное образование, стратегия, инновации.

Mamlakatimiz yangi innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot taraqqiyoti yo`lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan ushbu davrda O`zbekiston kelajagi bo`lgan yoshlarning intellektual salohiyati va fikrlash qobiliyatini har tomonlama qo`llab-quvvatlash, ularning egallashi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalarini davlat ta`lim standari asosida shakllantirish hamda xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari o`qitishning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqish uchun keng imkoniyat yaratildi. Shu bilan birga, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o`rgatish, o`quvchilarni katta hajmdagi ma`lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va mustaqil ishlash muammosi yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda faqatgina ma`ruzaga asoslangan an`anaviy darslar vaqti o`tdi. Axborot oqimi sur`ati tezlashgan bir paytda o`tilayotgan har bir dars rang-barang bo`lmasa, o`quvchi e`tiborini bilimga jalb etish mushkul. Buning uchun o`qituvchi tinmay izlanishi, ijodkor bo`lmog`i darkor. Bunday xolda, ayniqsa darsni o`yinlar asosida ko`rish tizimiga asoslanib o`tish sezilarli samara beradi. O`yinlar esa o`quvchi psixologiyasidan kelib chiqib,

tanlangani ma'qul. Birinchi bo'lishga undash uslubi doimo o'zini oqlaydi. Chunki bolalar xamisha o'zini ko'rsatgisi, tengdoshlaridan bir qadam oldinda yurgisi keladi. Darslarda ham yangi ma'lumotlarni yetkazishdan avval o'qituvchi ularning dastlab olgan bilimlarini, tasavvurlarini aniqlashtiradi, bir tizimga soladi, olingan bilimlar har xil ko'rgazmali vositalar, slaydlar, multimediya, tarqatma materiallar, qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaxkamlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Darsda olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining asosiy elementlaridan biri, o'quvchilarning o'zaro faollik asosida mustaqil, erkin fikrlash o'quv va amaliy topshiriqlarini bajarishlari, xayotda albatta yetuklikka yetaklaydi. Darslarda foydalaniladigan har qanday interfaol usullar ta'lim xarakteriga ega bo'lib, o'quvchilar bilimining mustahkamlanishiga, aniqlashtirilishi va kengayishiga, ularni umumlashtirishga va tizimga solishga yordam beradi.

Ta'lim sifatini oshirishda amalga oshirilayotgan ishlar xaqida gap ketganda, ta'lim berish jarayonini ezgulik ko'prigiga o'xshatamiz, bu ko'prikdan o'quvchilarimizni bilimli, dunyoqarashi keng qilib olib o'tish ustozni, ya'ni o'qituvchilarni vazifasi deb bilamiz. Darslarning nazariy va amaliy qismida o'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun pedagogik texnologiyaning samarali usullaridan foydalanib, kichik guruhlariga bo'lingan xolda olib boriladi. Mashg'ulotlarni olib borish jarayonini kuzatib borish va kerakli maslaxatlar berish kichik guruhlarda darslarni samarali o'tilishiga yordam beradi.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

a) berilayotgan materiallarni chuqurroq, va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;

b) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi:

v) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

g) olingan bilimlar kishi xotirasida o'zoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Ona tili o'quvchini mustaqil fikrlashga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon qilishga o'rgatadi. O'quvchining savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi. Ma'lumki, har bir milliy til o'zida moddiy olamni aynan, adyektiv aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni, qayg'u-alamlari-yu shodliklarini ham o'rinda tugal ifodalaydi. Insonda har bir narsaga nisbatan o'z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqariladi.

Tilning o'ziga xos nafosatini o'quvchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda ona tili ta'limida an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Keyingi yillarda breynrayting, breynstorming, aqliy hujum, bumerang, blits-so'rov, klaster, keys-stadi, germenektiv suhbat kabi turli tuman

metodlar paydo bo'ldi [1, 180- bet]. Shunday usullardan biri kakografiyadir. Kakografiya so'zi lotincha kakos – yomon, xunuk, yoqimsiz va graphos – yozmoq so'laridan olingan bo'lib, muayyan maqsadni ko'zlab xatoliklarga yo'l qo'yilgan matnni tuzatirish orqali o'quvchilarga imloni o'rgatish usuli sanaladi. Bu usulning pedagogik va didaktik jihatlari hali ochib berilmagan [2, 13-bet]. Rus tilida какофонический, какофония degan so'zlar mavjud bo'lib, ularga lug'atlarda quloqqa yoqmaydigan, yoqimsiz, nosoz, g'aliz; uyg'unlashmagan, yoqimsiz tovushlar yig'indisi degan izohlar beriladiki, bu so'z semantikasiga salbiy baho yuklaydi [3, 414-bet]. Shunga ko'ra, kakografiya usulida yozuv bilan bog'liq g'alizlik, yoqimsizlik yashirinib yotganga o'xshaydi, ammo orfografik nuqtayi nazardan qaralganda u bilan bog'liq didaktik hamda pedagogik jihatlarni ochib berish masalaga oydinlik kiritishi mumkin. Kakografiya interfaol usullardan biri sifatida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga, masalaning yechimini topishga, eng muhimi ona tili darslarida olingan bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular bo'yicha zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi. O'quvchilardagi loqaydlik, beparvolikni yo'qotib, dadillikka, ijodkorlikka chorlaydi, mutelik, tobelik, nafaollik kabi salbiy xususiyatlarga barham beradi. Ayniqsa, fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya bo'limlari bilan bog'liq amaliy darslarni o'tishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Masalan, o'quvchilarga unli va undosh tovushlar bo'yicha yetarlicha ma'lumotlar berilgach, "Mustahkamlash darslari" yoki "Takrorlash darslari"da turli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda asosiy e'tibor so'zlarning aytilishi va yozilishi o'rtasidagi farqqa qaratiladi. Tajribadan ma'lumki, o'quvchilarning aksariyati ona tili darslarida imlo qoidalarini puxta o'zlashtirmaydilar. So'larni qanday aytilsa, shunday yozishga odatlanib qoladilar. Shuningdek, o'quvchilarning nutqidagi dialektal xatoliklar ularning savodxonligiga soya solidi. Bu esa bora-bora ulardagi savodxonlik darajasining qotib qolishiga, so'zlarning muntazam ravishda xato yozilishiga sabab bo'ladi.

Kakografiyaning yana bir ko'rinishi matn ichida noto'g'ri berilgan so'zlarni to'g'rilashdan iborat. ***Gaplarni o'qing, noto'g'ri yozilgan so'zlarni orfografiya qoidalariga mos ravishda ko'chirib yozing.*** Bug'day noning bo'masin, Bug'day so'zing bo'sin. Ma'zali so'zga qulog' charchamas. Toom lazati o'zidan, Odam lazati – so'zidan. Qulog'dan kirgan soviq so'z ko'ngilga borib muz bo'lar. Puling bo'masa bo'masin, shirin so'zing bo'sin. Tili shirinning do'si ko'p. Qatiq gap qarindoshga ham yoqmas.

To'g'ri yozilishi: Bug'doy noning bo'lmasin, Bug'doy so'zing bo'lsin. Mazali so'zga quloq charchamas. Taom lazzati o'zidan, Odam lazzati – so'zidan. Quloqdan kirgan sovuq so'z ko'ngilga borib muz bo'lar. Puling bo'lmasa bo'lmasin, shirin so'zing bo'lsin. Tili shirinning do'sti ko'p. Qattiq gap qarindoshga ham yoqmas. Bunday topshiriqlar o'quvchilardagi ko'rish, eslash, narsalarni bir-biriga solishtirish va zaruriy xulosalar chiqarish kabi aqliy-ruhiy xususiyatlarning rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari quyidagi kasbiy, shaxsiy, amaliy sifatlari sohibi bo'lishlari kerak.

1. Notiq. Mantiq ilmiga asoslangan, haqiqiy ijodiy tafakkurga boy, go'zal, aniq nutq sohibi bo'lishi lozim. Zero, o'quvchilarni tildan maqsadli va o'rinli foydalanishga, sof adabiy tilda so'zlashishga o'rgatish uchun o'qituvchining o'zi sof, ta'sirchan nutqiy nafas egasi bo'lishi talab etiladi.

2. Xattot. Ona tili fanining muhim vazifalaridan biri — o'quvchilarni olgan bilimlarini til me'yorlariga amal qilgan holda yozma nutqda to'g'ri va bexato ifoda etishga o'rgatish. Buning uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi imlo qoidalari asosida yozadigan, yozma savodxon, chiroyli husnixatga ega bo'lishi shart. Buyuk faylasuf Suqrot shunday yozadi: "Yaxshi so'z ko'ngilni, xushxat ko'zni yoritadi".

3. Lug'atshunos. Ona tili va adabiyot fanini o'qitishda lug'atlar bilan ishlash muhim ahamiyatga ega. "O'zbek tilining imlo lug'ati" so'zlarni to'g'ri yozish ma'lakalarini shakllantirsa, "O'zbek tilining sinonimlar lug'ati" tilimizdagi so'zlarning ma'nodoshlik qatori, nutqda ulardan o'rinli foydalanish mahoratini rivojlantiradi. Masalan, 8-sinf ona tili darsligini tashkil etgan "Mumtoz matn va lug'atlar bilan ishlash" darslari fan o'qituvchisidan lug'atshunos bo'lishni talab etadi.

4. Senarist. Maktabda muhim sana va bayramlar bilan bog'liq tadbirlar, shoir-yozuvchi, buyuk allomalarga bag'ishlangan g'azalxonlik, ruboiyxonlik, xotira kechalari, qo'yingki, maktab hayoti bilan bog'liq tadbirlar ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarisiz o'tmaydi. Tadbirlar dasturini tuzganda o'qituvchidan ijodiy mahorat va yangicha yondashuv talab etiladi. O'tgan yilgi senariylardan foydalanish o'quvchini zeriktirib, mavzuga bo'lgan qiziqishlari susayishiga olib keladi.

5. Rejissor. Rejissurasi kuchli kinofilmlar, sahna asarlari klassik asarlarga aylanganidek, rejissurasi kuchli o'qituvchilarining o'quvchilari ko'plab muvaffaqiyatlarga erishadi. Bunda o'qituvchining o'tayotgan dars, mashg'ulot va tadbir bosqichlarini o'quvchilar qiziqishi, qobiliyatlaridan kelib chiqib namunali tashkil etish, boshqara olish mahorati namoyon bo'ladi.

6. Aktyor. Har bir pedagog, birinchi navbatda, "O'qituvchi" obrazini yaratishi lozim. Uyda, ko'chada, ish faoliyatida har xil vaziyatlar bo'lib turadi. O'qituvchining vazifasi har qanday sharoitda ham o'quvchiga yuqori optimistik ruhda sifatlari ta'lim berish.

Fan nuqtayi nazaridan, ayniqsa, adabiyot darslarida, mashg'ulot va adabiy kechalarda Navoiy, Bobur, Nodira, Zulfiya, badiiy asar qahramonlaridan Alpomish, Barchinoy, Farhod, Shirin, Otabek, Kumush obrazlarini mohirona gavdalantirish o'quvchilarda shaxsiy sifatlarning yuksalib borishiga xizmat qiladi. Shuningdek, buyuk ajdodlarimiz hayotidan ibrat olish va ularga hurmat tuyg'ulari yuksaladi.

7. San'atkor. Adabiyot ham aslida san'at — so'z san'ati. Adabiyotni sevgan qalb, san'atning boshqa turlarini ham tushunadi. Shunday o'quvchilar borki, darslikdagi mavzuga oid (ilmiy) axborotlarni a'lo bahoga o'zlashtirmaydi. Lekin shu mavzuga doir mo'yqalamda, kashtada, zardo'zlikda (san'atning boshqa

turlarida) bajargan ishlari kishini lol qoldiradi. Bunda fan o'qituvchisidan dars, mashg'ulot, sinfdan tashqari tadbirlarda o'quvchilarning iste'dod va qobiliyatlarini anglagan holda yondashish talab etiladi.

8. Shoir-yozuvchi. Maktab davrida qo'liga qalam olib she'r yoki hikoya qoramagan o'quvchining o'zi bo'lmasa kerak. "Yosh qalamkashlar", "Yosh ijodkorlar" kabi to'garaklarda "O'zim yozgan she'rimni, hikoyamni ko'rib bering", deya ustoziga talpinayotgan bu yosh yuraklarning hammasiyam kelajakda shoir yoki yozuvchi bo'lmasligi mumkin. Ammo ular qaysi sohani egallamasin yangilik yaratuvchi, tashabbuskor, ezgu g'oyalar ijodkori bo'lishlari, shubhasiz. Bunda o'qituvchining she'riyatga, badiiy adabiyotga oshuftaligi, adabiyot qoidalaridan xabardorligi, haqiqiy she'r, badiiy qimmati yuksak asar yozishda muallif mahorati haqidagi bilimlarni o'quvchilar qalbiga singdira olishi maqsadga muvofiqdir.

9. Jurnalist. Ommaviy axborot vositalari ta'lim jarayonini aks ettiruvchi ko'zgudir. Jurnalistika haqidagi ilk tasavvurlar maktab devoriy gazetasi, maktab radioeshittirishlari, o'quvchilar tayyorlagan maxsus maktab nashrlaridan boshlanadi. O'quvchilar respublika yoshlarining "G'uncha", "Tong yulduzi", "Gulxan", "Klass" kabi nashrlarida maqola, reportaj, taassurot, lavhalari chop etilishini, matbuot e'lon qilgan tanlovlarda g'olib bo'lishni orzu qilishadi. Shuningdek, o'qituvchining o'zi ham faoliyati uchun muhim bo'lgan gazeta-jurnallar bilan doimo birga bo'lishi, o'quvchilarni ham shunga undashi, nashrlarning kundalik hayotimizdagi ahamiyati haqida targ'ibot ishlari nazarda tutiladi.

10. Kitobxon. O'quvchilar qalbida mutolaaga mehr uyg'otish, ularni kitobga do'st qilish uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi kitobxon bo'lishi lozim.

Agar o'quvchilarni haqiqiy kitobxon etib tarbiyalasak, kelajakda qaysi kasbni tanlamasin, shu sohaning zabardast vakili, yaxshilik qilishni o'z hayotiy shioriga aylantirgan barkamol inson bo'lishiga shubha yo'q.

Faoliyatim davomida anglab yetgan haqiqatlarimni, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisiga xos bo'lishi kerak bo'lgan sifatlarni sanab o'tdim. Balki bu sifatlar qatorini hali davom ettirsa bo'lar. Maqsad bitta — bugunning o'qituvchisi nomiga munosib bo'lish.

Umuman olganda, biz – yoshlar vatanimiz O'zbekistonning qanotlarimiz. Bugun bizning oldimizda ona tilini o'rganish borasida yagona to'g'ri yo'l turibdi. Bizdan millatimizning bebaho boyligi, xalqimiz tafakkurining tengsiz javohiroti sanalgan o'zbek tilini mukammal o'rganishimiz, og'zaki va yozma savodxonligimiz yuksak bo'lishi talab etilmoqda. Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun bizga kakografiya usuli kutilgan samarani berishi mumkin. Zero, davr o'qituvchidan ham, o'quvchidan ham izlanishni, yangiliklarni o'zlashtirishni talab etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, darsning sifati, samaradorligi o'qituvchi tomonidan unga puxta tayyorgarlik ko'rishiga bog'liqdir. Bunda dars ishlanmasining hozirgi zamon ilg'or texnologiyalariga muvofiq holda loyihalaniishi alohida o'rin tutadi. Ta'lim sohasida pedagogik va axborot– kommunikatsiya texnologiyalardan, internet axborot ta'lim resurslaridan hamda konferentsiya usulidan foydalanish

o'quvchilarining olayotgan bilimlarni yuqori saviyada bo'lishida samarali yordam beradi va ularning kelgusida malakali mutaxassislar bo'lib chiqishiga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O'qituvchi. 2010 y. 254-263 b.
2. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim masalalari: muammo va yechimlar, (3), 71-73.
3. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim masalalari: muammo va yechimlar (3), 71-73.
4. Goldstein, B. (2017). A history of video in ELT. The image in English language teaching, 23-31.
5. Исраилова, М. Н. (2017). Формирование принципов устойчивого развития в обучении иностранным языкам. Международные научные исследования, (1), 161-163.
6. Исраилова, М. Н. (2016). Новые педтехнологии изучения латинского языка в медицинских вузах. Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения, (53), 66-71.
7. Исраилова, М. Н. К ВОПРОСУ О СОВРЕМЕННОМ СОСТОЯНИИ ЛАТЫНИ. In Конференция состоялась 5 марта 2022 года на базе Ташкентского государственного стоматологического института по адресу: Республика Узбекистан, 100047, г. Ташкент, ул. Махтумкули, 103. Цель конференции—знакомство и обмен опытом в обучении и в работе с цифровыми данными, технологиями их применения в гуманитарных (p. 414).
8. Балашов, С. В., Вернер, И. В., & Бышевский, В. И. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДИК ИНТЕРАКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ.
9. Minakov, O. E. E., Andreev, A. A., & Ostroushko, A. P. (2017). The diabetic foot syndrome. Journal of Experimental and Clinical Surgery, 10(2), 165-172.
10. Bosiers, M., & Schneider, P. A. (Eds.). (2009). Critical limb ischemia. Informa Healthcare.
11. Svetukhin, A. M., Karlov, V. A., IuA, A., Matasov, V. M., & Blatun, L. A. (1990). General principles of the treatment of suppurative wounds and suppurative surgical diseases. Khirurgiia, (12), 79-84.
12. Лысова, Д. П., & Лысова, М. П. (2015). Малые ампутации нижних конечностей при синдроме диабетической стопы. In Бюллетень медицинских интернет-конференций (Vol. 5, No. 5, p. 853). Общество с ограниченной ответственностью «Наука и инновации».
13. Остроушко, А. П., Глухов, А. А., Андреев, А. А., Маркин, Д. А., & Лаптиёва, А. Ю. Физико-химические основы инновационных методов и технологий в лечении ран мягких тканей. ДАГЕСТАНСКОЙ

- ГОСУДАРСТВЕННОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ, № 4 (41), 2021, 64.
14. Maxsudovich, K. O. CLINICAL COURSE OF PURULENT SOFT TISSUE DISEASES ON THE BACKGROUND OF DIABETES MELLITUS AND DIFFUSIVE TOXIC GOITER.
 15. Рахимов, А. Я., Сагдуллаева, Г. У., & Вахидов, У. Г. (2019). МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИЕ И МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ВАРИАЦИИ КУЛЬТИ ГОЛЕНИ У БОЛЬНЫХ САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ ПРИ КРИТИЧЕСКОЙ ИШЕМИИ НИЖНЕЙ КОНЕЧНОСТИ. Новый день в медицине, (2), 41-46.
 16. Rakhimov, A. Y., Mhsudovich, Q. O., Ulyanovna, S. G., Safojev, B. B., Zaripovich, L. O., & Rakhimov, A. Y. (2019). Transcutaneous oximetry as the choice of the research for determination of level of amputation of the crus at critical ishemiya of the lower extremities at patients with the diabetes mellitus. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 8(12), 120-125.
 17. Mitish, V. A., Safoev, B. B., & Rakhimov, A. Y. (2019). REAMPUTATION THE CULT OF THE CRUS IN PATIENTS WITH DIABETES MELLITUS IN CRITICAL ISCHEMIA OF THE LOWER EXTREMITIES. Central Asian Journal of Pediatrics, 2(1), 230-234.
 18. Митиш, В. А., Сафоев, Б. Б., & Рахимов, А. Я. РЕАМПУТАЦИЯ КУЛЬТИ ГОЛЕНИ У БОЛЬНЫХ САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ ПРИ КРИТИЧЕСКОЙ ИШЕМИИ НИЖНИХ КОНЕЧНОСТЕЙ.